NAVRO’Z: QADIMIY E’TIQODLAR, MIFOLOGIK TASAVVURLAR VA MAROSIMLAR

Begzod Xomitaliyev
Farg‘ona shahar 27-maktab tarix fani o‘qituvchisi
Farg‘ona, O‘zbekiston
ORCID: 0009-0001-3653-2231
ScienceID: MFR-1026-0143

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘rta sharq va Markaziy Osiyoda keng nishonlanib kelgan Navro‘zning paydo bo‘lishi, qachondan nishonlana boshlagani hamda uning qadimiyligiga ishora qiluvchi bir talay tarixiy manbalar tahlili berilgan. Keltirilgan Navro‘zninng kelib chiqishi va nishonlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan rivoyat va manbalar, Navro‘zni belgilash va bayram qilishda ma’lum bir astronomik bilimlarga tayanilganligi, ikki xil turi xususida soz yurilgan.

Kalit so‘zlar: Urf-odatlari, kundalik turmush ehtiyojlari, atrof-muhit, tabiat, Taxmuras, Jamshid, xalq sayillari, o‘yinlari, astronomik bilimlar.

Аннотация: В данной статье представлен анализ многочисленных исторических источников, указывающих на возникновение Навруза, который широко отмечался на Ближнем Востоке и в Центральной Азии, когда он начал отмечаться, а также на его древность. Приведенные легенды и источники, связанные с происхождением и празднованием Навруза, опирались на определенные астрономические знания при установлении и праздновании Навруза, говорилось о двух его видах.

Ключевые слова: Обычаи, повседневные потребности, окружающая среда, природа, Тахмурас, Джамшид, народные гуляния, игры, астрономические знания.

Abstract: This article analyzes numerous historical sources indicating the origin of Navruz, which was widely celebrated in the Middle East and Central Asia, when it began to be celebrated, and its antiquity. Legends and sources related to the origin and celebration of Navruz are presented. There are two types of reliance on certain astronomical knowledge in the designation and celebration of Navruz.

Keywords: Customs and traditions, daily living needs, environment, nature,

Tahmurath, Jamshid, folk festivals, traditional games, astronomical knowledge.

O‘rta sharq va Markaziy Osiyoda navro‘z qadimdan nishonlab kelinadigan bayram va qadimiy an’anadir. Bu bayramning vujudga kelishida insoniyatning uzoq o‘tmishidan boshlab shakllana boshlagan ma’lum udumlari, urf-odatlari, kundalik turmush ehtiyojlari va albatta, insonning atrof-muhit va tabiat omillari bilan aloqalari muhim ro‘l o‘ynagan. Davrlar o‘tishi bilan bu urf-odatlar iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlana boshlashi bilan turli xalqlar, mamlakatlar aholisi o‘rtasida yoyila borgan hamda mazmunan boyigan va ma’lum hududlar aholisi orasida mustahkam ananaga aylangan.



Navro‘zning paydo bo‘lishi, qachondan nishonlana boshlagani hamda uning qadimiyligiga ishora qiluvchi bir talay tarixiy manbalar mavjud. Ayrim manbalarga ko‘ra Navro‘z qadimgi eronliklarda ahomoniylar davridan (miloddan avvalgi 558-330-yillar) boshlab odat tusiga kirgan. Navro‘z haqida nisbatan toliq ma’lumotlar va aniq ilmiy xulosalar Abu Rayxon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Qonuni Masudiy”, va “At-tafhim” asarlarida, Umar Xayyomning “Navro‘znoma” risolaasida yozib qoldirilgan. Bundan tashqari ushbu bayram haqida ayrim qiziqarli malumotlar Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” va Alisher Navoiyning “Tarixi mulki ajam” asarlarida ham keltirib o‘tilgan.

Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Navro‘z haqida shunday yozadi: “Fors olimlaridan biri: - U kunni Navro‘z deb atashning sababi shuki, sobiiylar Taxmuras davrida yuzaga chiqqanlar. Jamshid podshoh bo‘lgach [majusiylar] dinini yangiladi va bu ish qilingan kun Navro‘z [ya’ni] “yangi kun” deb ataldi. Bu kun garchi u [Jamshid] dan oldin ham hurmat qilingan bo‘lsada, bayramga aylantirildi”, - deydi[1:252].

Beruniy yuqoridagi asarida Naro‘zni bayram qilish haqida bunday yozadi: “Jamshid [o‘ziga] arava yasab olgach, o‘sha kuni unga chiqdi. Jinlar va shaytonlar uni havoga ko‘tarib, bir kunda Dunbovanddan Bobilga olib bordilar. Odamlar bu ajoyib voqeani ko‘rgach, o‘sha kunni bayram qildilar va Jamshidning [aravada uchishiga] taqlid qilib, arg‘imchoqlarda uchdilar”[2:252]. Ulug‘ olim o‘z fikrlarini davom ettirar ekan, shoh Jamshidning shaharlarni aylanishni yaxshi ko‘rishini va kunlardan birida Ozarbayjonda bo‘lishni istab, tilladan yasalgan taxtga o‘tirishi hamda odamlar taxtni yelkalarida

ko‘tarishlari, shu paytda Jamshidga quyosh nuri tushib tovlanishi, buni ko‘rgan odamlarning uni ulug‘lashlari va o‘sha kunni bayramga aylantirganlari haqida malumot beradi.

Beruniyning Navro‘z nishonlanishi haqida yozib qoldirgan malumotlari buyuk shoir Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida ham keltirib o‘tiladi. O‘z asarida Jamshid podsholigi davrini tariflar ekan shoir quyidagi misralarni ham keltiradi:

Ishlari gurillab, berganda meva,
Yana ulug‘likni ayladi sheva.
Bitta taxt qurdirdi bari siym-u zar,
Shukuhi Kayoniy, bezagi gavhar.
“Dev ko‘tarib uchsin”, deb bo‘ldi farmon,
Taxt ko‘tarilganda past bo‘ldi osmon.
Taxt ko‘kda charx urar misoli quyosh,
Farmondor o‘tirar unda irg‘ab bosh.
Barcha jam, odamlar qarar taxtiga,
Jahon qoyil bo‘lib shukuh baxtiga.
Jamshidga sochishar oltin-u gavhar,
Shu kunni yangi yil – bayram deyishar.
Yil boshi Hurmuz-u edi Farvardin
Dilda na g‘am qoldi, na adovat kin[3:30].



Yuqorida keltirib o‘tilgan malumotlardan ham ko‘rinib turibdiki, Navro‘z yil boshlanishi sifatida qadimdan e’zozlanib kelingan, faqat shoh Jamshid hukmronligi paytida xalq bayrami sifatida nishonlana boshlangan. Navro‘zning shoh Jamshiddan avval ham xalq e’tiborida bo‘lganligini Firdavsiyning “Shohnoma” asari orqali ko‘rishimiz mumkin. Shoir o‘z asarida eronliklarning ilk hukmdori Kayumars aynan bahorning birinchi kunida taxtga o‘tirganligini eslab o‘tadi:

Hamal burjiga kirib qolganda oftob,
Jahon yorib ketdi, nurlanardi ob.
Qayumarsga jahon shohlik buyurdi,
Ilk bor manzilin tog‘ ichra qurdi[4:15].

O‘rta asrlarda yashab o‘tgan buyuk shoir va ulug‘ olim Umar Xayyom o‘zining “Navro‘znoma” asarida bu kun va bayram haqida qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Ushbu asarda olim Navro‘z haqidagi rivoyatlarni shoh Jamshidga taqasada, shoh Kayumarsning Hamal oyini birinchi kuni yil boshi hisoblansin, - degan farmonini ham qayd etib o‘tadi. Umar Xayyom bu to‘g‘risida shunday yozadi: “Jamshid shu kunni (Farvardin oyining boshi) Navro‘z atalsin, deb farmon berdi va odamlarga har yili farvardinning kirishini bayram qilishni, uni yangi yil deb hisoblashni buyurdi”[5:11].

Navro‘z Alisher Navoiy ijodidan ham o‘rin olgan. Xususan, uning “Saddi Iskandariy” dostonida Navro‘zning bayram qilinganligi shunday ifodalanadi:

Ki bu sur erur olam afro‘z ham,

Xususan erur fasli Navro‘z ham.

Yuqorida keltirilgan malumotlardan ikki narsani xulosa qilish mumkin: birinchisi – Navro‘zninng kelib chiqishi va nishonlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan rivoyat va manbalarning deyarli barchasi shoh Jamshidga doir voqealardan iborat; ikkinchisi – Navro‘zni belgilash va bayram qilishda ma’lum bir astronomik bilimlarga tayanilgan.

Manbalarga ko‘ra qadimda Navro‘zning ikki xil turi bo‘lgan. Unga ko‘ra Farvardin oyining ilk kuni Xurmuz yani Podsho Navro‘zi deb atalgan va yangi yil sifatida nishonlangan. Farvardin oyining oltinchi kuni esa Xurdod yani katta Navro‘z deb atalgan. Bundan kelib chiqadiki qadimda Navro‘z olti kun davomida nishonlangan. Bu kunlar qanday nishonlangani haqida Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida batafsil malumotlar keltirgan. U bayramning olti kunining har biriga alohida to‘xtalgan: “Xusravlarning shu besh kun ichida [o‘tkazadigan] marosimlaridan biri shunday edi: podshoh Navro‘z kuni [bayram] ni boshlab, odamlarga o‘zining xalqni qabul etish va ularga ehson qilish maqsadida [taxtga] o‘tirganini bildiradi. Ikkinchi kuni martabasi juda yuqori kishilar, yani dehqonlar va [mashhur] xonadon ahllarini [qabul qilish] uchun o‘tiradi; uchinchi kuni otliq sipohlari va ulug‘ mubadlari uchun o‘tiradi; to‘rtinchi kuni o‘z uyidagilar, yaqin va maxsus kishilari uchun; beshinchi kuni esa o‘z o‘g‘illari hamda qaramog‘idagi kishilarni [qabul qilish] uchun o‘tiradi. Ularning har biriga xizmatiga loyiq martaba berib, ikrom qiladi, lozim ko‘rgan yaxshilik va inomini to‘liq inom etadi”[6:253].

Oddiy xalq farvardnning ilk kunini bozor qoshidagi maydonlarda, shahar chekkalaridagi sayilgohlarda nishonlashgan. Odatda Navro‘zning ilk kuni quyidagicha o‘tgan; kunning dastlabki yarmida xalq maydonlarida dorbozlar tomoshalari va polvonlar kurash-bellashuvlari o‘tkazilgan. Tush paytida turli sozandalar va san’atkorlar o‘zlarining ijrolari bilan xalqni xushnud etishgan bo‘lsa, tushdan keyin xalq sayillari, o‘yinlari va bazmlar uyushtirilgan.

Navro‘z bilan bog‘liq kun tomoshalari kundan-kunga avjiga chiqqan. Har hil musobaqalar, uloq va poygalar bayramning ko‘rki bo‘lib xizmat qilgan.

Endi navbatdagi masala Navro‘zning astronomik voqeligiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Navro‘z avvalo kalendar udumlar sirasiga kiradi. Biz bilamizki, qadimda turli xalqlar yil boshi bayramini turli vaqtlarda va turlicha sabablardan kelib chiqqan holda nishonlashgan. Lekin bir qonuniyat barcha uchun barobar bo‘lgan, hamma xalqlar yil hisobini o‘tgan vaqtga qarab hisoblashgan, bu esa insonlarni tabiat hodisalari va qonuniyatlarini o‘rganishga majbur qilgan. Masalan qayerdandir issiq o‘lkalarga uchib ketgan qushlarning qaytib kelishi yil boshlanishi deb olingan bo‘lsa, boshqa hududlarda esa daryo va dengiz suvlarining o‘z o‘zanidan toshishi yil boshi sifatida olingan.

Biroq inson uchun vaqtni bilish va anglash, avvalo quyosh chiqishi va botishini kuzatishdan boshlangan. Insonlar keyinchalik oyning holatini ham kuzata boshlashgan. Oy yoki quyosh harakatlaridan qaysi birini kuzatish bu xalqlarning geografik holatiga bog‘liq bo‘lgan. Yana bir narsani qayd etish kerakki bu samo jismlarini kuzatish qadimgi davr odamlarining tirikchilik tashvishlari, ov qilish, chorvachilik va ayniqsa dehqonchilik ishlarini olib borishlari uchun juda zarur bo‘lgan. Misol uchun qadimgi mesopotamiya aholisi uchun ikki yirik daryo Dajla va Frot daryolarining holati juda ahamiyatli bo‘lgan. Chunki ular dehqonchilik qilish uchun bu ikki daryoning qachon toshishini, qayerlarni suv bosishi va qayerlarda dehqonchilik qilish mumkin ekanliklarini bilishlari zarur edi. Ular esa buni oyni kuzatish orqali aniqladilar. Qadimgi mesopotamiyaliklar oy har 29-30 sutkada o‘z holatini o‘zgartirishini aniqladilar va shu orqali bundan besh ming yil ilgari dastlabki oy kalendarini yaratdilar.

Navro‘z bayramining kelib chiqishi haqida ham astronomik kuzatishlar muhim ro‘l

o‘ynaganligini ko‘rishimiz mumkin. Buni Firdavsiyning quyidagi baytlari ham tasdiqlaydi:

Hamal burjiga kirib qolganda oftob,

Yil boshi Xurmuzu edi Farvardin[7:15].

Ushbu baytdagi “hamal”, “burj”, “yil boshi” tushunchalarining barchasi yer va uning quyosh sistemasidagi harakatlariga aloqador. Qadimgi eronliklarda Navro‘z bayramining quyosh harakatlanishiga bog‘liqligi to‘g‘risida Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida alohida takidlab o‘tadi. Olim shunday yozadi: “Ajam olimlar, - Navro‘z kunida bir soat bor. Shu soatda Firuz falaki ruhlarni maxluqotni yaratish uchun yuboradi. U kunning eng saodatli soatlari Quyosh soatlaridir. Uning tongida yorug‘lik imkon boricha [yerga] yaqinlashadi, odamlar unga qarashi bilan o‘zlarini baxtli sanaydilar. U tanlangan kundir”[8:252].

Beruniyning ma’lumotlariga e’tibor berilsa, unda bir qancha ilmiy-geografik tushunchalar mavjud ekanligi anglash mumkin. Yuqoridagi malumotlarda quyoshning yillik harakati, ekvatordan shimoliy yarimsharga siljishi, kunlarning uzayib borishi, quyosh nurining yerga tobora tik tusha boshlashi kabi malumotlar keltirilgan.

Bu holatni Beruniy asarining keyingi qismlarida aniqroq izohlab beradi: “Eronliklar yil boshlanish kunini yozgi quyosh turishi vaqtiga xoslab qo‘yishlarining sababi shuki, quyoshning ikkala turishini (yozgi va qishki) kuzatish qurollari orqali va ko‘z bilan bilish ikki kecha-kunduz barobarligini bilishdan osonroqdir… Ikki kecha-kunduz barobarligiga kelganda, oldin shahar kengligi va to‘la og‘ish (yerga tushayotgan quyosh nurlarining yer yuzidagi eng katta og‘ish burchagi, u ekliptika og‘ish burchagi ham deyiladi) bilinmasdan u ikki kunni bilib bo‘lmaydi. So‘ngra bu faqat astranomiyagagina diqqat bilan e’tibor bergan, uning ilmidan xabardor, kuzatish qurollari, ularni tiklashni va ular bilan ish qilishni bilgan kishigagina ravshan bo‘ladi”[9:253].

Yuqorida keltirilgan malumotlardan xulosa qilish mumkinki, Navro‘z bayramini nishonlash odamlarning yer haqidagi, koinotda yerning o‘rni va shunga o‘xshash bir qator astronomik bilimlarga ega bo‘lgan davrlarga to‘g‘ri keladi. Beruniy keltirgan malumotlarga tayanadigan bo‘lsak, sharqda bunday bilimlar ancha qadimdan malum bo‘lgan bo‘lib chiqadi.

Navro‘z nishonlana boshlagan paytdan buyon ming yillar o‘tdi. Ushbu vaqt ichida bu bayram o‘z boshidan turli tuman kunlarni o‘tkazdi. Jumladan islom dini paydo bo‘lib, keng yoyila boshlagan davrda Navro‘zni islomlashtirish siyosati olib borildi va shu tufayli ham keyinchalik ba’zi bir olimlar Navro‘zning kelib chiqishini islom dini bilan bog‘lashga harakat qilishdi. Ammo Navro‘zning islom diniga aloqasi yo‘q ekanligini Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida keltirib o‘tgan: “Abdusamad ibn Validan rivoyat qilinishicha, u (ushbu rivoyatni) bobosi Abdullo ibn Abbosga olib borib taqaydi. Navro‘z kuni payg‘ambar alayhissalomga (Muhammadga) holva solingan kumush jom sovg‘a qilingan. Shunda Payg‘ambar: “Bu nima? – degan”. “Navro‘z”, - deb javob berganlar. Payg‘ambar: “Navro‘z nima?” – deb so‘ragan. “Eronliklarning ulug‘ hayiti” – deganlar… Keyin payg‘ambar holvani yeb, jomni (sindirib), suhbatdoshlariga taqsim etgan va: “Koshki biz uchun har kun Navro‘z bo‘lsa edi”, - degan”[10:254]. Ushbu rivoyatdan ham anglashiladiki, arablar ushbu bayram haqida ma’lumotga ega bo‘lmaganlar, faqatgina qadimgi Fors davlati hududlari istilo qilinib, ularning madaniyatlari bilan tanishganlaridan keyingina ushbu bayram haqida bilishgan va uni o‘z madaniyatlariga singitib yuborishga uringanlar. Chunki bu paytga kelib Navro‘z bayrami juda katta hududlarga yoyilgan hamda xalqning ijtimoiy hayotida katta o‘ringa ega edi. O‘z navbatida xalq orasida bunday nufuzga ega bo‘lgan bayramni yo‘q qilishga yoki obro‘sizlantirishga urinish xalqning noroziligiga sabab bo‘lishi mumkin edi. Shu sababli ham arablar Navro‘zni yo‘qotishni emas, balki uni islom dini bilan omuxta qilish yo‘lini tanladilar. Bundan tashqari Navro‘zdagi urf-odatlar diniy emas, balki kishilarning kundalik turmush ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning islom etiqodiga zarari tegmas edi. Shuning uchun keyingi davrlarda arablar ham Navro‘zning manaviy jihatdan rivojlanishiga va yangirishiga e’tibor qaratdilar.

Navro‘z bayramining eng og‘ir kunlari sovet davriga to‘g‘ri keladi. Dinga qarshi kurash paytida Navro‘z ham turli tazyiqlarga uchradi va ma’lum bir vaqtda umuman nishonlanishi taqiqlandi ham. Biroq shunga qaramasdan xalq o‘zining sevimli bayramini nishonlashdan to‘xtamadi. Uni turli yashirin yo‘llar bilan bayram qilaverishdi. Sovet davrining qayta qurish siyosati jarayonlarida Navro‘zni qayta tiklash ishlari olib borildi.

Yurtimiz mustaqil bo‘lgach esa, bu bayram xalq bayrami sifatida Respublika miqyosida keng nishonlana boshlandi. Bugungi kunda Navro‘z bayrami ommaviy sayil sifatida shahar stadionlarida, tumanlar markazida, qishloqlarda, dalalarda, mahalla-guzarlarda nishonlanadi. Navro‘zni uning ko‘rki bo‘lgan sumalak, turli-tuman ko‘kdan tayyorlanadigan ko‘k somsa, ko‘k manti va albatta chalpaklarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu yilgi Navro‘z shodiyonalari ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2025-yil 21-fevraldagi PQ-68-son “2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” qaroriga muvofiq yurtimizda katta shodiyonalar bilan o‘tkazildi.



Foydalanilgan manba va adabyotlar

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T. O’zbekiston. 2022. 1.T. 252 b.

2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T. O’zbekiston. 2022. 1.T. 252 b.

3. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. – T. G’afur Gulom. 1984. 30 b.

4. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. – T. G’afur Gulom. 1984. 15 b.

5. Umar Xayyom. Navroznoma. – T.Mehnat – 1990. 11 b.

6. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T. O’zbekiston. 2022 1.T. 253 b.

7. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. – T. G’afur Gulom. 1984. 15 b.

8. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T. O’zbekiston. 2022 1.T. 252 b.

9. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T. O’zbekiston. 2022 1.T. 253 b.

10. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T. O’zbekiston. 2022 1.T. 254 b.